

---

## **Lingvistik kompetensiyaning filologiya talabalari uchun ahamiyati**

**Abdug'affarova Arofat Shamsiddinovna**  
*Tayanch doktorant*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada globalizatsiya va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun lingvistik kompetensiyaning dolzarbligi hamda uni rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Lingvistik kompetensiya – bu grammatik, leksik, fonetik va pragmatik bilimlarning uyg'un tizimi bo'lib, talabaniq tilni nazariy o'zlashtirish bilan birga amaliyotda, madaniy va ijtimoiy kontekstda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini ham anglatadi. Lingvistik kompetensiyaning filologiya yo'nalishidagi talabalar uchun ahamiyati, uning tarkibiy qismlari va rivojlanish metodlari tahlil qilingan. Tilni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, uni madaniy va kommunikativ kontekstda qo'llay bilish filologiya talabalari uchun muhim kasbiy ko'nikma sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqot davomida deskriptiv, qiyosiy va analitik metodlar asosida lingvistik kompetensiyaning grammatik, fonetik, leksik va pragmatik komponentlari o'rganilgan. Shuningdek, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va innovatsion yondashuvlarning o'rni yoritilgan. Bundan tashqari ushbu maqola o'z ichiga lingvistik kompetensiyani baholashning samarali usullarini, o'qituvchilar malakasini oshirish, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi hamda filologiya sohasida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.*

### **Kalit so'zlar**

*Lingvistik kompetensiya, filolog talabalar, kasbiy tayyorgarlik, grammatik kompetensiya, diskurs kompetensiyasi, sotsiolingvistik kompetensiya, strategik kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, tanqidiy tahlil.*

---

## **Значение лингвистической компетенции для студентов- филологов**

**Абдугаффарова Арофат  
Шамсиддиновна**  
*Прикладной докторант*  
*Узбекский государственный университет  
мировых языков*

### **Аннотация**

*В данной статье проанализированы актуальность и пути развития лингвистической компетенции у студентов филологических направлений в условиях глобализации и стремительного развития информационных технологий. Лингвистическая компетенция рассматривается как система взаимосвязанных знаний — грамматических, лексических, фонетических и*

*прагматических, которая позволяет студентам не только теоретически овладеть языком, но и применять его в практике, а также в культурном и социальном контексте. Освещены значение лингвистической компетенции для будущих филологов, её основные компоненты и методы формирования. Язык представлен не только как средство общения, но и как профессиональный инструмент для анализа, перевода и интерпретации текстов. В исследовании использованы дескриптивный, сравнительный и аналитический методы для изучения компонентов лингвистической компетенции. Также рассмотрена роль цифровых технологий, интерактивных платформ и инновационных подходов в развитии языковых навыков. Статья включает рекомендации по оценке лингвистической компетенции, повышению квалификации преподавателей и развитию межкультурной коммуникации, а также содержит теоретические и практические подходы к повышению качества образования в филологической сфере.*

**Ключевые слова** *Лингвистическая компетенция, студенты-филологи, профессиональная подготовка, грамматическая компетенция, дискурсивная компетенция, социолингвистическая компетенция, стратегическая компетенция, межкультурная коммуникация, критический анализ.*

---

## The importance of linguistic competence for philology students

**Abdugaffarova Arofat Shamsiddinovna**  
PhD researcher  
Uzbekistan State World Languages University

**Annotation** *This article analyzes the relevance and development strategies of linguistic competence for students studying in the field of philology in the era of globalization and rapidly evolving information technologies. Linguistic competence is defined as a harmonious system of grammatical, lexical, phonetic, and pragmatic knowledge that enables students not only to master the language theoretically but also to apply it effectively in practice, within cultural and social contexts. The importance of linguistic competence for philology students, its structural components, and methods of development are thoroughly examined. The study emphasizes that mastering a language both theoretically and practically, and being able to use it in communicative and cultural contexts, is a crucial professional skill for philology students. The research employs descriptive, comparative, and analytical methods to explore the grammatical, phonetic, lexical, and pragmatic aspects of linguistic competence. Furthermore, the role of modern digital technologies, interactive platforms, and innovative approaches in enhancing language skills is discussed. The article also provides practical recommendations on assessing linguistic competence, improving teacher qualifications, and fostering intercultural communication, while*

*offering theoretical and practical approaches aimed at improving the quality of education in the field of philology.*

## Keywords

*Linguistic competence, philology students, professional training, grammatical competence, discourse competence, sociolinguistic competence, strategic competence, intercultural communication, critical analysis.*

## Kirish.

Globalizatsiya va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bugungi davrda chet tillarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, xorijiy tilni chuqur o'rganishga ixtisoslashgan filologiya yo'nalishi talabalari uchun til bilimlari nafaqat bilim sifatida, balki kasbiy faoliyatning asosiy vositasi hisoblanadi. Bunday sharoitda lingvistik kompetensiya- ya'ni til tizimini chuqur anglash, to'g'ri va kontekstga mos qo'llay bilish qobiliyati har bir filolog mutaxassis uchun muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Lingvistik kompetensiya talabaning fonetik, grammatik, leksik va pragmatik bilimlarini bir butun tizimda shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, filolog talabalarining nafaqat og'zaki nutqda erkin fikr bildira olishi, balki tarjima faoliyatida ham aniq izchillikni ifodalay olishiga ham imkon beradi. Turli xil madaniy kontekstlarni maromiga yetkazib tarjima qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois, filologiya yo'nalishida tehsil olayotgan talabalar uchun lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlari bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

## Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Lingvistik kompetensiya atamasi ilk bor amerikalik tilshunos olim Noam Xomskiy tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u bu tushunchani insonning cheksiz sonli gaplarni to'g'ri shakllantirish va tushunish qobiliyati sifatida ta'riflagan. Xomsky (1965) til tizimi va uning ishlatilishiga oid bilimni «kompetensiya» deb atagan bo'lsa, uning real nutqdagi

namoyon bo'lishini «performs» deb ajratgan. Keyingi yillarda bu tushuncha til o'rganish metodikasi va lingvodidaktika sohalarida keng qo'llanila boshladi. Keyingi tadqiqotlarda, masalan, Dell Hymes (1972) tomonidan lingvistik kompetensiya tushunchasiga kommunikativ jihatlar ham qo'shib, kommunikativ kompetensiya tushunchasi shakllantirildi. Hymes fikricha, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash bilan emas, balki uni kontekstda to'g'ri va samarali qo'llay bilish bilan ham chambarchas bog'liq. Bu yondashuv ayniqsa filologiya yo'nalishi talabalari uchun muhim, chunki ular nafaqat tilni o'rganadilar, balki uni adabiyot, tarjima, madaniyatshunoslik sohalarida faol qo'llaydilar.

K. E. Kanale va M. Svain (1980) lingvistik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri deb baholagan va uni to'rtta asosiy komponentga ajratgan:

1. Grammatik kompetensiya – morfologiya, sintaksis, leksika, orfografiya va fonologiyani egallash;
2. Diskurs kompetensiyasi – matnlarni bog'liq va mantiqiy tarzda tuzish;
3. Sotsiolingvistik kompetensiya – tilni ijtimoiy kontekstda to'g'ri qo'llash;
4. Strategik kompetensiya – kommunikatsion muammolarni hal etish uchun strategiyalardan foydalanish.

O'zbek tilshunosligida ham bu tushuncha asta-sekin chuqurlashtirilmoqda. Masalan, Q. Yo'ldoshev (2007) va M. Yusupova (2014) kabi olimlar lingvistik kompetensiyaning til o'rgatishdagi o'rnini milliy kontekstda izohlab

berganlar. Ularning tadqiqotlarida til o'rganish jarayonida fonetik va grammatik bilimlar bilan birga madaniy omillarni ham hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. N. Mamatqulova (2022) ta'kidlaganidek hozirgi kunda tadqiqotchilar til kompetensiyasini o'rganishda fonetik, grammatik va leksik kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirishning turli jihatlarini tahlil qilmoqdalar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozish davomida tahliliy yondashuv asosida tadqiqot olib borildi. Lingvistik kompetensiyaning mazmun-mohiyatini aniqlash va uning filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ahamiyatini ochib berish maqsadida bir necha metodlar kompleks tarzida qo'llanildi. Avvalo, deskriptiv (ta'rifiy) metod orqali lingvistik kompetensiya tushunchasiga doir turli manba va adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida terminologik aniqlik kiritilib, tilshunoslik va lingvodidaktika sohalaridagi asosiy nazariy qarashlar umumlashtirildi. Qiyosiy metod vositasida turli olimlarning lingvistik kompetensiyaga bergan tariflari, yondashuvlari va komponentlari o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlab berildi. Analitik metod asosida lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismlari (grammatik, leksik, fonetik, pragmatik) va ularning filologiya talabalarining o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy maqolalari, darsliklar, monografiyalar hamda til o'rgatish metodikasi bo'yicha so'nggi yutuqlar asosiy manba sifatida o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Olib borilgan adabiy manbalar tahlili va mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida lingvistik kompetensiyaning filologiya yo'nalishidagi o'rni va amaliy ahamiyati samarali o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, lingvistik kompetensiya bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik va ta'lim metodikasi doirasidagi asosiy tushunchalardan biriga aylangan. U tilni to'liq va mukammal

o'zlashtirish, muloqotda erkinlikka erishish va madaniy hamda ijtimoiy kontekstda samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan kompleks bilim va ko'nikmalar yig'indisidir. Bir nechta xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilinganda, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun lingvistik kompetensiyaning quyidagi jihatlarini muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi:

**1. Kasbiy tayyorgarlikning asosi:** Til – filologlar uchun nafaqat aloqa vositasi, balki tadqiqot, tarjima, tahlil va ijodiy ishning asosiy obyekti va vositasidir. Shuning uchun, lingvistik kompetensiya filologik faoliyatning tayanch poydevoridir.

**2. Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot:** Lingvistik kompetensiyaga ega bo'lgan filolog tilning madaniy xususiyatlarini ham anglay oladi. Bu esa uni global muloqotda raqobatbardosh qiladi.

**3. O'quv jarayonining samaradorligi:** Lingvistik kompetensiya kuchli bo'lgan talaba til materialini tezroq o'zlashtiradi, yangi bilimlarni tizimlashtira oladi, matnlar bilan ishlashda faol va mustaqil bo'ladi.

**4. Ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil:** Lingvistik kompetensiyasi har tomonlama rivojlangan talabalar matnlar tahlilida, stilistik va semantik tahlillarda, tarjima jarayonlarida chuqurroq ishlashga qodir bo'ladi.

Empirik asoslarga tayangan holda aytish mumkinki, talabalar orasida til bilimining shaklan mavjud bo'lishi yetarli emas. Ularni turli kontekstlarda to'g'ri qo'llay olish, tilning nozik jihatlarini anglash, madaniy va kommunikativ muvofiqlikni ta'minlash ham zarur. Shu nuqtai nazardan, lingvistik kompetensiyaning quyidagi elementlari alohida ajratib ko'rsatildi:

- Grammatik va leksik bilimlar – til qurilishining asosiy elementlari sifatida;
- Fonetik va ortoepik ko'nikmalar – og'zaki muloqot sifati uchun muhim;
- Pragmatik bilimlar – ma'noni anglash va yetkazish aniqligi uchun zarur;

- Stilistik sezuvchanlik – turli matn janrlarini farqlay olish va mos uslubda ifoda topish.

Yana bir muhim jihat – raqamli texnologiyalar vositasida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Onlayn platformalar (Duolingo, Quizlet, BBC Learning English), interaktiv mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi mashqlar va ovoqli tahlil ilovalari til o'rganishda shaxsiylashtirish, tezkor fikr-mulohaza va erkin mashq qilish imkonini bermoqda. Bu vositalar ayniqsa filologiya talabarlari uchun mustaqil va ijodiy o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sh. Xamroyeva (2024) fikriga ko'ra lingvistik kompetensiyani rivojlantirish talabarlarda ko'plab o'lchovlarni o'z ichiga olgandynamik jarayon bo'lib, unga fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik kompetensiya kiradi. Bu jarayon atrof-muhit, genetik va ta'lim faktorlarining, shuningdek, madaniy va ijtimoiy ta'sirlarning o'zaro murakkab ta'siri bilan shakllanadi. Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni chaqaloqlikdan boshlanadi, erta bolalik davrida davom etadi, o'smirlilik va kattalik davrida uzayadi, har bir bosqich insonning til ko'nikmalarining umumiy yetukligiga hissa qo'shadi.

Shuningdek tahlil davomida quyidagilar aniqlandi:

- Lingvistik kompetensiya rivojlanmagan talaba fikrini aniq ifoda etishda qiynaladi, Bu qiyinchilikning mavjudligi ayniqsa yozma va og'zaki matnlar yaratishda ko'zga tashlanadi.
- Nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashmasa, kompetensiyaning shakllanishi sekin kechadi.
- Lingvistik kompetensiyani baholashda oddiy testlardan tashqari portfoliolar, erkin yozuvlar, og'zaki nutq namunalarini tahlil qilish kabi usullar samaraliroq hisoblanadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari lingvistik kompetensiya filologiya ta'limining markaziy elementi bo'lib, uni tizimli, bosqichma-bosqich

va interfaol metodlar orqali rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi.

**Xulosa va takliflar.** Lingvistik kompetensiya filologiya yo'nalishidagi talabalar uchun muhim kasbiy ko'nikma bo'lib, til o'rganish jarayonida ularning tilga oid nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Filologiya mutaxassisligi o'zining mazmuni va ta'lim uslubi bilan boshqa sohalardan farq qiladi, chunki bu yo'nalish tilning grammatik va sintaktik tomonini o'rganibgina qolmay, balki madaniy, pragmatik, sotsiolingvistik jihatlarini ham chuqur o'rganishni talab qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, filologiya mutaxassisi uchun tilni faqat nazariy jihatdan bilish emas, balki tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri qo'llay olish ham muhim. Shu ma'noda, lingvistik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari: grammatik, leksik, fonetik, pragmatik va madaniy-kommunikativ kompetensiya filologiya talabalarining kasbiy salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Til o'qitish metodikasida lingvistik kompetensiyaning roli haqida Avstraliyalik olim D.Nunan quyidagicha fikr bildiradi: "Inson chet tilida gapira olishi uchun, albatta, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, yetarli lug'at zaxirasiga ega bo'lish va sintaksisni yaxshi bilish lozim – bularning yig'indisi lingvistik kompetensiyani tashkil etadi. Ammo faqat lingvistik kompetensiya mavjud bo'lishi yetarli emas, til o'rganuvchi samarali muloqot qila olishi uchun bundan ko'proq narsa zarur."

Xulosa qilib aytganda, lingvistik kompetensiya – filologiya yo'nalishidagi talabalarining asosiy kasbiy ko'nikmasidir. Bu bir tomondan tilni mukammal o'zlashtirish, boshqa tomondan tilni muloqotda samarali qo'llay olishni anglatadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, lingvistik kompetensiya filologiya mutaxassislarining kasbiy faoliyatida talab qilingan barcha til ko'nikmalarini o'z ichiga oladi

va uni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun maxsus ta'lim metodologiyalari va yondashuvlari zarur. Lingvistik kompetensiyaning rivojlanishi talabalarning tilni tez va samarali o'rganishiga yordam beradi. Tahlil qilinayotgan metodologiyalar asosida, filologiya talabalari nafaqat grammatikani, balki tilni amaliyotda qo'llashni, nutq jarayonlarini boshqarishni o'rganadilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishlariga imkon yaratadi. Ta'limda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'zni katta. Digital texnologiyalar, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar va interaktiv materiallar talabalarga tilni o'rganishda yordam beradigan zamonaviy vositalardir. Bu vositalar til o'rganishni individuallashtirishga imkon beradi, shuningdek, talabalarni real vaqt rejimida nutqni kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Filologiya yo'nalishida ta'limni zamonaviy usullar bilan yangilash kerak. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, lingvistik kompetensiyani shakllantirishda faqat nazariy bilimlarga emas, balki amaliy ko'nikmalarga ham katta e'tibor qaratish zarur. Filologiya talabalarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda interaktiv darslar, guruhli ishlar va muloqotli metodlar samarali bo'ladi.

Quyidagi amaliy tavsiyalar berishni joiz deb bilindi:

1. Filologiya yo'nalishida lingvistik kompetensiya asosidagi o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Bu dasturlar talabalarni nafaqat til o'rganishga, balki tilni ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qo'llay olishga ham tayyorlashi lozim. Dasturlarni yaratishda kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini

hisobga olish zarur. Masalan, grammatika va leksikaning zamonaviy metodlar orqali o'rganilishi, pragmatik ko'nikmalarni mustahkamlash uchun simulyatsiyalar va rolklarni qo'llash.

2. Raqamli platformalar va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Lingvistik kompetensiyaning rivojlanishiga yordam beradigan innovatsion vositalardan foydalanish talabalarni mustaqil va samarali o'rganishga rag'batlantiradi. Onlayn testlar, interaktiv ilovalar va virtual muloqotlar samarali o'rganish vositalarini tashkil etadi.

3. Lingvistik kompetensiyani baholashda an'anaviy testlardan tashqari, talabani og'zaki nutqi, yozma ishlarini tahlil qilish hamda ularning kommunikativ qobiliyatlarini o'lchash usullaridan foydalanish zarur. Portfoliolar, nutq va yozuv sinovlari, tinglovchilar bilan interaktiv muloqot talabalarining real ko'nikmalarini aniqroq baholash imkonini beradi.

4. Talabalarining madaniyatlararo muloqotini rivojlantirish uchun xorijiy tillarni o'rganish bilan birga, turli millatlar va xalqlar madaniyatlari haqidagi bilimlarni oshirish kerak. Bu talabalar tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki madaniy kontekstda ham to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Tashqi tillar va madaniyatlar bo'yicha keng qamrovli kurslar va seminarlar tashkil etish zarur.

5. O'qituvchilarni malakasini oshirishda lingvistik kompetensiyaning yangi metodologiyalarini o'rgatish. O'qituvchilarni lingvistik kompetensiyaning zamonaviy yondashuvlari bilan tanishtirish, ularning o'quvchilarga tilni mukammal o'rgatishda samarali usullarni qo'llashlarini ta'minlash zarur.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva FS. Conception of learning tourism terms. *International Journal of Early Childhood Special Education*. 2022 Jul 1;14(5).

2. Gebhard, J.G. (1996). *Teaching English as a foreign language: A teacher self-development and methodology guide*. The University of Michigan Press.
3. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In *Sociolinguistics*. Retrieved from <http://samdu.uz>
4. Khalilova, H.K. (2022). Some issues of teaching English for specific purposes. *Porta Linguarum*, 37. <https://doi.org/10.30855/porta.v0i36.1397>
5. Khamrayeva, Sh. (2024). Importance of linguistic competence and factors influencing on the issue. *European Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(5), 13–16. <https://doi.org/10.61796/ejlhss.v1i5.530>
6. Khamrayeva, Sh. Sh., Diyorova, N. O., & others. (2022). Modern information technologies and their impact on education process. *Porta Linguarum*. <https://doi.org/10.30864/porta.v0i36.13988>
7. Mamatkulova, N., & Mamatkulova, M. kizi. (2022). The importance of learner-centered approach in vocabulary development. *Jurnal Cakrawala Pendidikan*, 41, Article e43538. <https://doi.org/10.21831/cp.v41i3.43538>
8. Nunan, D. (1989). *Designing tasks for the communicative classroom*. Cambridge University Press. Retrieved from <https://dialnet.unirioja.es>
9. Shadmanbekova, K.A. (2022). Intercultural communication and methods of teaching at higher educational institutions. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 9. ISSN: 2795-4846